

## QORAQALPOG'ISTON IQLIMIDA O'SGAN TUT DARAXI BARGINI IPAK QURTINI HAYOTCHANLIGIGA TA'SIRI

**Xurliman Kuanishbaeva** -QAXAI 1-kurs magistranti

**Otabek Oripov**— IITI doktaranti, a.x.i.p.p.d.(PhD)

**Annotatsiya** Bu maqolada Qoraqalpog'istonda maxalliy va xorijdan olib kelingan ipak qurti zoti urug'larin jonlantirish va tashqi muhit omillari (harorat, namlik, yorug'lik, havo almashishi, oziq miqdori ) nińg ta'sirin urganish. Tut ipak qurtining xayotchanligini aniqlash uslublari ilmiy maqolada yoritilǵań.

**Kalit so'zlar.** Urug' lichinka, ipak qurti, havo namliği, harorat, qurtxona, oziq, tut yoproǵı, pilla, ipak qurti hayotchanlıǵı, navlilik, mahsuldorlik.

**Kirish.** Respublikamizda bugungi kunda tut ipak qurtining o'sishi, rivojlanishi, ko'payishi va mahsuldorligini ta'minlovchi naslli populyatsiyalarni yaratish, yuqori sifatli pilla hosili yetishtirish, ipak tolasining texnologik ko'rsatkichlarini oshirish va takomillashtirish borasidagi ilmiy-tadqiqotlarga yetarlicha e'tibor qaratilmagan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 martdagı PQ-2856-sonli «O'zbekipaksanoat uyushmasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida» gi va 2018 yil 20 martdagı PQ-3616-sonli «Pillachilik tarmog'ini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi» gi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 11-avgustdagı «2017-2021 yillarda pillachilik tarmog'ini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida» gi 616-sod qarorlarida mahalliy zot va duragay urug'lari hamda pilla ishlab chiqarishni oshirish, ularning sifatini yaxshilash, shu bilan birga ipakchilik sanoati eksport imkoniyatlarini kengaytirish belgilab berilgan. Mazkur yo'nalishdagi barsha meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu magistrlik dissertatsiya tatqiqotlari muayyan darajada xizmat qiladi. Tirik organizmlarning hayot faoliyatiga ta'sir etuvchi asosiy tashqi muxit namlik, gazlar

almashinuvi va boshqalar kiradi. Tut ipak qurtining o'z tana harorati bo'lmanligidan atrofdagi havo hamillarga oziqlanish, tashqi muhit harorati, atrofdagi havo harorati uning o'sishi va rivojlanishi uchun juda katta ta'sir ko'rsatadi. Ipak qurtlaridan mo'l va sifatli pilla olish uchun tashqi sharoit omillarini o'rganish bilan bir qatorda ularni boqish sharoitda bajarilayotgan agrotexnik qoidalarni ipak qurtining zoti yoki duragayining mahsuldorlik ko'rsatkichlariga ta'sirini tadqiq etish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

**Izlanish olib borish uslublari.** Maqsadni amalgga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi Toshkent shahri Ipakchilik Ilmiy tadqiqot instituti labaratoriyasidan keltiritgan tut ipak qurtining Liniya-51 zoti urug'lari qiyoslovchi sifatida olindi va maxalliy Ipakchi-1 va Ipakchi -2 zotlari qurti urug'idan foydalanildi.

*Izlanish ishlari* Qoraqalpog'iston qishloq xojaliği va agrotexnologiyalar instituti "Ipakchilik" kafedrasi hámda har turli klimat sharayotiga ega viloyatlarda olib borildi. Ipakchilik ilimiyl-tadaqiqot instituti olimlari tomonidan yaratilgan ipak qurtining Ipakchi-1 parodasi, Ipakchi-2 parodasi hamda Liniya-51 parodalarining urg'ochi kapalaklari tashlagan tuxum qo'ylarmalaridan bittadan tuxum qo'ymasi olinib jonlantirishga qo'yiladi. Qo'ylarmalardagi tuxumlardan qurtning jonlanishiga qaray tajribadagi zotlarning har biridan 3 dan variant tuziladi.

Variantlar bo'yicha quyidagi zotlardan foydalanish mumkin :

Variant 1 - "Ipakchi-1" zot urug'lari.

Variant 2 - "Ipakchi-2" zot urug'lari.

Variant 3 - (Qiyoslovchi ) Ipakchilik ilimiyl-tadaqiqot instituti labaratoriyasidan keltiritgan "Liniya-51" zotiniń urug'lari

Qoraqalpog'iston iqlim shároyatida biologik (urug'nı jonlanishi, qurtning hayotchańlıgi, qurtlik davri, po'st tashlashi, pilla o'rashi ham boshqa ), pillaniń hosildorligi (pillalosildorligi va sifati, ipakshańlik xususiyatlari ) va kapalaklarning pushdorlik (ko'p urug' tashlashi ) xususiyatlarining o'zgarishi, tashqi muhit, ozuqa va boqish shart-sharoitlari bilan o'zaro bog'liqliligi ilmiy asosda tasdiqlanib, nazariylik jihatdan malumotlar olinadi.

Shu vaqtgacha pillachilik rivojlangan mamlakatlar tajribasini, jumladan, tut ipak qurtini jonlantirish, kichik va katta yoshlarda qurtlarni parvarish qilish, pilla o'ratish agrotexnikasi hamda pillalarni terib dastlabki ishlov berish texnologiyasi, pillachilik sohasida erishilgan yuqori natijalar O'zbekiston sharoitida qo'llanilishi kam o'rganilgan. Bundan tashqari xorijda yuqori agrotexnik sharoitda tayyorlangan ipak qurti urug'larini bizning agroiqlim sharoitda jonlantirib boqish, adaptatsiya (moslashish) xususiyatlari, jumladan xorij urug'larini oddiy usulda jonlantirish, qurt boqishda qo'llaniladigan agrotexnikani ipak qurtining fiziologik holatiga ta'siri, ipak bezi faoliyatiga oziqlantirish va haroratning ta'sir etishi bilan ipak mahsuldorligiga (pillaning biologik ko'rsatkichlari, hosildorligi va navdorligi hamda texnologik xususiyatlari) ta'siri o'rtaida bog'liqlikni aniqlash kabi masalalarni o'z ichiga olgan tadqiqotlar o'tkazilmagan. Bizning tadqiqotlarimizda pillachilik sohasi rivojlangan mamlakatlar tajribalaridan foydalaniib, pilla hosildorligi va navdorligini yaxshilashga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borildi.

### **1-jadval**

**Ipak qurti zotining biologik ko'rsatkichlari (2023 yy.)**

Variantlar	Qurtliq davri, sutka	Qurtning hayotchanligi,	Pilla og'irligi,g.	Pilla qobig'i og'irligi, g.	Navli pilla, %	Ipakchanlik
1-variant Ipakchi-1	26,0	98,0	1,6	0,318	93,0	26,0
2-variant Ipakchi-2	26,0	96,0	1,6	0,361	90,0	21,4
3-variant Liniya-51 (qiyoslovchi)	25,0	95,0	1,5	0,330	96,0	20,5

Har uchala zotda ham qurtlarning biologik ko'rsatkichlari yuqoriliginini ko'rishimiz mumkin. Hayotchanligi yuqori bo'lgan variantlardagi qurtlar pillsining og'irligi va pilla qobig'inинг qalinligida o'zlarining sermahsulligini isbot qildi. Ipak

qurti zotlari sermahsulligi muhim ko'rsatkich bo'lib, o'zining ipakchanlikda ham o'z ifodasini topdi. Bu ko'rsatkich tirik pillalarda 24-26% ni tashkil qildi. Pilla qobig'ining og'irligi 0,318-0,361 grammidan iborat bo'ldi. Ipak qurti zotlari o'zlarining yuqori hayotchanligi 98% 1 dona pilla massasini 1,6-1,5 grammni tashkil qilishi bilan 1 qutidan olinadigan pilla hosili 70-75 kilogramm bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Haroratni ipak qurtiga ta'siri to'g'risida bir qator tadqiqot ishlari olib borilgan bo'lsada, turli mamlakatlardan O'zbekistonga introduktsiya qilingan zot va duragaylarga Markaziy Osiyoning o'ziga xos quruq iqlim sharoiti qay darajada ta'sir etishi deyarli o'rganilmagan. Aksariyat hollarda, tut ipak qurtining yuqori texnologik xususiyatlarga ega zot va tizimlari havo harorati va namlikning o'zgarishiga o'ta sezuvchan bo'ladi. Shuning uchun katta miqdorda respublikaga keltirilayotgan zot va duragaylarni optimal parvarishlash shart-sharoitlarini tadqiq etish va eng samarali rejimlarni ishlab chiqarishga tavsiya etish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Bunda ipak qurtlarini hayotchanligi eng muhim ko'rsatkichlardan biridir. Shuning uchun bu masala pillachilik amaliyotida nihoyatda muhim o'rinni tutadi. Chunki hozirgi kunda fermer xo'jaliklaridagi qurt boquvchi zvenolarning tajribasizligi natijasida qurtxonada harorat va namlikni keskin o'zgarishiga yo'l qo'yilmoqda, natijada qurtlar sonining yo'qotilishi kuzatilmoqda. Shu bois tadqiqotlarimizda yuqori va past harorat va havo nisbiy namligining ipak qurti hayotchanlik ko'rsatkichlariga ta'sirini o'rganishga alohida o'rinni berildi. Tajriba davomida qurtlarning o'sishi, rivojlanishi va kasalliklarga chalinishi ham kuzatib borildi. Qurtlar barcha variantlarda 3-yoshgacha yaxshi va sog'lom rivojlanib bordi. 4-yoshdan boshlab, asosan bakterial va zamburug' kasalliklariga duchor bo'lishi ma'lum bo'ldi. Tut ipak qurti paykiloterm hashorat bo'lganligi uchun uning hayot faoliyati, qurtxonadagi harorat va havo namligi ko'rsatkichlariga bog'liq bo'ladi. Ipak qurti organizmi va muhit omillari orasidagi bog'liqlik qurtlarni pilla o'rashga kirishishi va dastaga chiqishida namoyon bo'ladi. Havo harorati me'yorda bo'lishi ipak qurtining 5-yosh oxirida qurtlarni faol dastaga ko'tarilishini, g'ana ostida qolib ketmasligini ta'minlaydi. Bundan tashqari dastaga ko'tarilish va pilla o'rashning ilk davrlarida

qurt juda katta energiya sarflaydi, mushaklari sakkizlik harakatini intensiv bajarishi ko'p jihatdan tashqi muhit haroratiga bog'liq bo'ladi. Mazkur yo'nalishdagi barcha me'yoriy huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda avvalo ipak qurti xayotchanlik jarayonlarini to'g'ri yo'lga qo'yish, urug' miqdori va sifatini oshirish, sanoat urug'larini tayyorlashda toza ipak qurti zotlaridan foydalanish va sanoat urug'ini tayyorlovchi korxonalar sonini ko'paytirish kerak bo'ladi.

### **Foydalilanigan adabiyotlar.**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 29 мартағи “Ўзбекипаксаноат уюшмаси фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2856-сон қарори. - Тошкент, 2017. 1-5-6.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 20 мартағи “Пиллачилик тармоғини янада ривожлантириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-3616-сон қарори. - Тошкент, 2018. 1-4-6.
3. Ражабов Н.О. Янги тут навларининг ипак қурти ҳаётчанлигига таъсири. //Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги журнали. –Тошкент, 2018. -№6. – Б.
4. Абдимова Г., Умарова С. Ипак қуртининг саноатбоп дурагайларини тайёрлаш. //Зооветеринария –Тошкент, 2017. -№3 Б. 41.
5. Абдимова Г., Салихова К. “Бомбикс-мори” ипак қурти озиқаси. //Фермер – Тошкент, 2013. №1-2. Б. 58-59.
6. Абдимова Г., Ипак қурти тухумларини жонлантириш жонланган куртларни тарқатиш ва боқиши. //ККОАНРУз «Проблемы ратсионального использования охрана биологических ресурсов южного приаралья», Нукус, 2014, №7, Б. 217-218.